

FINLANDIYADA PEDAGOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Mo'sinova Sevaraxon Farhodjon qizi

Farg'onan Davlat Universiteti

Pedagogika – psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Pedagogika psixologiya yo'nalishi 4- kurs talabasi.

O'rNova Nilufar

Ilmiy rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15513050>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Finlandiyada pedagogik ta'lismi sohasini rivojlanadirish bo'yicha mavjud tendensiyalar tahlil qilinadi. Mamlakatning ta'lismi tizimidagi yutuqlari, innovatsion yondashuvlari, o'qituvchilar tayyorlashdagi yuqori standartlari va doimiy kasbiy rivojlanishga qaratilgan strategiyalari yoritiladi. Finlandiyaning tajribasi asosida pedagogik ta'limi sifat jihatidan takomillashtirish, amaliyat va nazariyani uyg'unlashtirish, hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tamoyillari ko'rib chiqiladi. Maqola pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va ta'lismi siyosatini ishlab chiquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Finlandiya ta'lismi, innovatsion metodlar, inkluziv ta'lismi, ta'limda raqamlashtirish, ta'lismi sifatini baholash, o'quv dasturlarini yangilash.

Finlandiyada ta'lismi tizimi demokratik qadriyatlar, teng imkoniyatlar va shaxsiy yondashuv tamoyillariga asoslangan murakkab, lekin izchil va puxta o'ylangan tuzilmani tashkil etadi. Ushbu tizim har bir insonning individual salohiyatini namoyon qilishiga imkon beruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib oliv ta'lismi oluvchilar va umrbod o'rganishni davom ettiruvchi kattalargacha bo'lgan keng auditoriyani qamrab oladi. Finlandiya ta'lismi tizimining yana bir ajralib turuvchi jihatni bu umrbod o'rganish tamoyiliga sodiqlikdir. Mamlakatda har qanday yoshda bo'lgan fuqaro qayta o'qish, yangi kasb egallash yoki shaxsiy bilimini oshirish huquqiga ega. Kattalar ta'lumi uchun alohida dasturlar, kechki kurslar, masofaviy o'qitish shakllari joriy etilgan. Bu esa insonning shaxsiy va kasbiy o'sishiga doimiy sharoit yaratadi. Shunday qilib, Finlandiya ta'lismi qat'iy bosqichlarga bo'lingan holda barqaror, yuksak samarali va insonparvarlik ruhida tashkil etilgan bo'lib, u hayotning har bir bosqichida o'quvchini qo'llab-quvvatlaydi. Har bir bosqich o'z vazifasini tolaqonli bajaradi va keyingi bosqichga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim o'zining moslashuvchanligi, adolatga asoslangan yondashuvi va yuksak natijalari bilan butun dunyo

e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Finlandiya ta'lim tizimining bugungi kunda erishgan muvaffaqiyatlari nafaqat tashkiliy jihatdan mukammal tuzilgan tizim natijasi, balki bu tizimga go'yaviy va siyosiy darajada yondashuvning ham mevasidir. Finlandiya ta'lim siyosati yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, demokratik tamoyillar va ijtimoiy adolatga asoslangan yondashuvlarga suyangan holda ishlab chiqilgan. Bu siyosatning markazida inson qadri, teng imkoniyat va ijtimoiy farovonlik yotadi.

Finlandiyada ta'lim siyosatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bu barcha bolalar uchun ta'lim olishda tenglik prinsipining amalda ta'minlanishidir. Har bir bola, u qaysi hududda yashamasin, qanday ijtimoiy kelib chiqishga ega bo'lmasin, sifatli va qulay ta'lim muhitidan foydalanish huquqiga ega. Maktablar va muassasalar imkon qadar teng darajada moliyalashtiriladi, sinflardagi o'quvchilar soni kamaytirilgan, pedagogik kadrlar butun mamlakat boylab teng taqsimangan. Ayniqsa, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun integratsiyalashgan ta'lim muhitlari yaratilgan bo'lib, ular boshqa o'quvchilar bilan teng sharoitda ta'lim olishlari uchun zarus texnik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, Finlandiyada ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki ham juda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatda ota-onalarning ta'limga nisbatan ma'suliyatli munosabatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli ijtimoiy tashabbuslar mavjud. Ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtaida muntazam muloqot, hamkorlik asosida tashkil etilgan uchrashuvlar, seminar va maslahat markazlari mavjud. Ota-onalar bolalarining rivojlanish jarayoniga bevosita jalb etiladi, bu esa ularning o'z farzandlariga nisbatan pedagogik yondashuvini mustahkamlashga xizmat qiladi. Finlandiyalik ota-onalar ta'lim sifati, o'qituvchi mehnatiga hurmat va ta'lim muassasalari bilan ijobiy hamkorlik madaniyatini qadrlaydilar.

Mustaqil ta'lim – Finlandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil o'rghanish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.¹ Yana bir muhim omil sifatida davlat tomonidan ta'lim sohasiga doimiy e'tibor va moliyaviy qo'llab-quvvatlovni alohida ta'kidlash lozim. Ta'limga yo'naltirilgan mablag'lar nafaqat o'quv jarayonining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, balki pedagoglarning kasbiy rivoji, yangicha metodikalarning joriy etilishi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va maktablarning mustaqilligini taminlash kabi ko'plab yo'naliishlarda ishlatiladi. Shuningdek, mamlakatdagi har bir pedagog kasbiy malakasini oshirish huquqiga ega bo'lib, ularning har yili malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi rag'batlantiriladi.

¹ Manba: Yuldashev Sh. "Finlandiyada mustaqil ta'limni tashkil etish" – Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 2024.

Finlandiya ta’lim tiziminining siyosiy asoslarini o‘rganar ekanmiz, bu tizimni muvaffaqiyatli qilgan jihatlarning eng muhimlaridan biri bu islohotlarning muvofiqlashtirilgan, bosqichma-bosqich va izchil olib borilganligidir. Bu yerda ta’lim siyosati keskin tajribalarga emas, balki uzoq muddatli strategiyalarga tayangan holda, sinovdan o‘tgan yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Har bir islohotdan avval keng jamoatchilik, pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar fikri inobatga olinadi. Shunday qilib, Finlandiyada ta’lim siyosatini belgilovchi asosiy omillar bu teng imkoniyatlar, ota-onalarning faol ishtiroki, davlat tomonidan mustahkam moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va siyosiy barqarorlikka asoslangan islohotlar tizimidir. Bu omillar zamirida yotgan asosiy go‘ya shuki, ta’lim bu jamiyatni barqaror rivojlantiruvchi kuchdir. Va bu kuchga sarmoya kiritish, aslida, butun jamiyatning kelajagiga xizmat qiladi.

Finlandiyada asosiy ta’lim faqatgina bilim beruvchi tizim emas, balki o‘ziga xos madaniyat, jamiyat va shaxs tarbiyalovchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Bu tizimda o‘quvchi mustaqil, fikrlovchi, ijtimoiy ma’suliyatga ega, tenglikni qadrlovchi inson sifatida shakllanishi ko‘zda tutilgan. Maktab hayoti bolalarning ijtimoiy tajribasi, jamoada yashash madaniyati va demokratiya asoslarini o‘rganish maydoniga aylanadi. Shu jihatdan qaraganda, Finlandyaning majburiy ta’lim tizimi o‘z ichiga zamonaviy ta’limning barcha ilg‘or yondashuvlarini jamlagan kuchli va barqaror mexanizmdir. Ushbu mexanizm o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli, do‘stona va tenglikka asoslangan munosabatdir. Maktabda intizom doimo qa’tiy qoidalar bilan emas, balki ishonch asosida ta’minlanadi. O‘qituvchi buyruq beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, maslahat beruvchi, qiziqishga yetaklovchi inson sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bunday pedagogik muloqotni rivojlantirish, ayniqsa o‘quvchining ichki olamiga quloq solishga tayyor o‘qituvchilarini tayyorlash bu jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Finlandiya ta’lim tizimi muvaffaqiyatining ildizi, avvalo, har bir bolaga teng qarashda, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, bir xil imkoniyatlar yaratish tamoyilida yotadi. Bu tizimda elita maktablari yoki qobiliyatli bolalar uchun maxsus guruhlar degan tushunchalar mavjud emas. Har bir bola o‘zicha noyob, o‘zicha qimmathi va o‘zicha salohiyatli. Maktablar o‘rtasida farq yo‘q, resurslaradolatli taqsimlangan, o‘qituvchilar bir xil malakaga ega. Bu ijtimoiyadolatni ta’minlovchi yondashuvdir. O‘zbekiston uchun bu tajriba ota dolzarb. Mamlakatda ta’lim imkoniyatlarining hududiy tafovutlarini qisqartirish, chekka hududlardagi maktablar infratuzilmasini mustahkamlash, malakali kadrlarni aynan o‘scha joylarga yetkazish orqali ijtimoiy tenglikni ta’lim darajasida taminlash imkoniyati mavjud.

Aholining turli qatlamlariga mansub o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish bu nafaqat bilim, balki ijtimoiy barqarorlik, jamiyatning integratsiyalashuvi va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam zamin demakdir.

Finlandiyada shuningdek, inklyuziv talim tamoyili mukammal tarzda yo‘lga qo‘yilgan.

Nogironligi bor o‘quvchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan, maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan, pedagogik yondashuvlar esa alohida metodika asosida olib boriladi.

Har bir bola o‘z muhitida, o‘z tengdoshlari orasida bo‘lishi va bir xil ilm olishga haqli deb qaraladi. O‘zbekiston ham inklyuziv ta’lim bo‘yicha islohotlarni boshlab yuborgan bo‘lib, bu yo‘lda Finlandyaning tizimli, chuqur va insonparvar tajribasi beba ho manba bo‘lishi mumkin. Inklyuzivlikning yana bir jihatni madaniy va til jihatdan ozchilik bo‘lgan guruhlarning huquqlarini ta’minalashdir. Finlandiyada shved tilida ta’lim oluvchi fuqarolar uchun alohida tizim mavjud, shimoliy hududlarda yashovchi saam xalqi bolalari ona tilida o‘qish imkoniyatiga ega. Bu esa milliy qadriyatlar va til madaniyatining asrab qolinishiga, ayni paytda jamiyatda bagrikenglik va madaniy xilma-xillik muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Finlandiya Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroga bepul va sifatli ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Bu faqat majburiy maktab ta’limini emas, balki undan yuqori bosqichlardagi ta’lim turlarini ham qamrab oladi. Ta’lim olishdagi tenglik va adolat prinsiplariga qat’iy amal qilinadi. Ijtimoiy holat, yashash manzili, milliy mansublik, jismoniy imkoniyatlar yoki madaniy farqliliklar insonning ta’lim olish huquqiga to‘siq bo‘lilmaydi.

Aksincha, aynan turlicha ehtiyojlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa ta’limni insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil qilish go‘yasini yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek, Finlandiya ta’lim siyosatining muhim ustunlaridan biri umrbod o‘rganish tamoyilidir.

Ta’lim jarayoni faqat maktab davri bilan cheklanmaydi. Bolalikdan to keksalikka qadar har bir inson istalgan vaqtida o‘zini rivojlantirish, kasbini o‘zgartirish yoki yangi ko‘nikmalarni egallash huquqiga ega. Davlat bu imkoniyatlarni turli shakllarda qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa jamiyatda moslashuvchan, raqobatbardosh va doimo yangilanishga intiluvchi fuqaro shakllanishiga xizmat qiladi. Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining insonparvarlik, tenglik va demokratik qadriyatlarga asoslangan yondashuvi bilan ajralib turadi. Ta’lim muassasalari faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiylashuv muhitini yaratuvchi makon sifatida qaraladi. Har bir bola o‘z shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy aloqalarni o‘rganishi, axloqiy qarorlar qabul qilishni shakllantirishi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, Finlandiyada ta’lim tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishida maktab avtonomiyasi va o‘qituvchilar erkinligi muhim ro‘l o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya tajribasi pedagogik ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar va uzlucksiz rivojlanishning yorqin namunasi hisoblanadi. Mamlakatda o‘qituvchilik kasbining nufuzi yuqori bo‘lib, pedagogik tayyorgarlik chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligiga asoslanadi. So‘nggi yillarda ta’limda individual yondashuv, inklyuzivlik, raqamlashtirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar rivojlanishning asosiy tendensiyalari sifatida ajralib turmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini doimiy qo‘llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yondashuvlar Finlyandiya ta’lim tizimining muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mazkur tajriba boshqa davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun ham dolzarb va foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schleicher, A. (2018). World Class: How to Build a 21st-Century School System. OECD Publishing.
2. Darling-Hammond, L. (2010). The Flat World and Education. Teachers College Press.
3. OECD (2010). Finland: Slow and Steady Reform for Consistently High Results. OECD.
4. Välijärvi, J. et al. (2007). The Finnish Education System and PISA. Ministry of Education, Finland.
5. Simola, H. (2005). The Finnish miracle of PISA: Historical and sociological remarks on teaching and teacher education. Comparative Education.
6. Niemi, H. (2012). The teacher’s role in Finland: Strengths and challenges. European Journal of Education.